

EKOLOGIK JINOYATLAR VA EKOLOGIK-HUQUQIY JAVOBGARLIK

Xoldarov Murodiljon Raxmatillo o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy-odil sudlov fakulteti,
1-bosqich A-2 guruh talabasi.

m.xoldarov06@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14330853>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekologik jinoyatlar bilan kurashishda samarali jinoiy javobgarlik tizimi, maxsus ekologik sudlar va jinoiy jazolarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun hali ham to'liq samarali ishlamayotgani, ekologik jinoyatlar uchun belgilangan jazolarni kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan. Bu borada xalqaro tajriba va ilmiy izlanishlar asosida qonunlarni yangilash, ekologik jinoyatlar uchun maxsus jinoiy javobgarlikni kuchaytirish va ekologik sudlarni tashkil etish zarurligi ko'rsatilgan. Shuningdek, ekologik jinoyatlar bo'yicha global tajriba o'r ganilgan va AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlarda maxsus sudlar va jazolar tizimi muvaffaqiyatli ishlashini ko'rsatdi. Ushbu yondashuvlar O'zbekistonda ham joriy etilishi kerak. Ekologik jinoyatlar bilan kurashishda faqat huquqiy yondashuvlar bilan cheklanmasdan, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni ham inobatga olish zarur. Jamiyatning ekologik ongini oshirish, atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, ekologik jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish zarurligini tasdiqlash bilan birga, ekologik huquqni takomillashtirish, maxsus yuridik mexanizmlar yaratish va global tajribani joriy etish zaruriyatini ko'rsatildi. O'zbekiston va boshqa davlatlar ekologik jinoyatlar bilan kurashishda samarali tizimlarni yaratish, tabiiy resurslarni himoya qilish va insoniyatning kelajagini xavfsiz saqlash uchun faol ishlar olib borishlari kerak.

Kalit so'zlar: ekologik jinoyatlar, iqtisodiy omil, javobgarlik, qonun, jinoiy javobgarlik, yuridik ramka.

ENVIRONMENTAL CRIMES AND ENVIRONMENTAL LEGAL RESPONSIBILITY

Abstract. This article shows the need for an effective criminal liability system, special environmental courts and strengthening criminal penalties in combating environmental crimes.

The study emphasizes that the Law "On Environmental Protection" adopted by the Republic of Uzbekistan is still not fully effective, and there is a need to strengthen the penalties for environmental crimes. In this regard, based on international experience and scientific research, it is necessary to update laws, strengthen special criminal liability for environmental crimes and establish environmental courts. Global experience in environmental crimes was also studied and

showed that special courts and punishment systems in countries such as the USA and the European Union work successfully. These approaches should also be introduced in Uzbekistan. In combating environmental crimes, it is necessary to take into account not only legal approaches, but also social and economic factors. Raising the environmental awareness of society, strengthening public participation in environmental protection, is important in preventing environmental crimes.

The study, while confirming the need to strengthen criminal liability for environmental crimes, also indicated the need to improve environmental law, create special legal mechanisms and introduce global experience. Uzbekistan and other countries should actively work to create effective systems for combating environmental crimes, protect natural resources and secure the future of humanity.

Keywords: environmental crimes, economic factor, liability, law, criminal liability, legal framework.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ И ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ

Аннотация. В статье показана необходимость укрепления эффективной системы уголовной ответственности, специальных экологических судов и уголовных наказаний в борьбе с экологическими преступлениями.

В исследовании было отмечено, что принятый в Республике Узбекистан Закон «Об охране окружающей среды» до сих пор не в полной мере эффективен, и необходимо ужесточить наказания за экологические преступления. В связи с этим указывается на необходимость обновления законодательства, усиления специальной уголовной ответственности за экологические преступления, создания экологических судов на основе международного опыта и научных исследований. Также изучен мировой опыт экологических преступлений и показано, что система специальных судов и наказаний успешно работает в таких странах, как США и Евросоюз. Эти подходы также должны быть внедрены в Узбекистане. В борьбе с экологическими преступлениями необходимо учитывать социальные и экономические факторы, не ограничиваясь правовыми подходами. Важно повысить экологическое сознание общества, усилить участие общественности в охране окружающей среды, предотвратить экологические преступления.

Исследование подтвердило необходимость усиления уголовной ответственности за экологические преступления, а также необходимость совершенствования экологического законодательства, создания специальных правовых механизмов и внедрения мирового опыта. Узбекистан и другие страны должны активно работать над

созданием эффективных систем борьбы с экологическими преступлениями, защиты природных ресурсов и обеспечения безопасности будущего человечества.

Ключевые слова: экологические преступления, экономический фактор, ответственность, закон, уголовная ответственность, правовая база.

I.Kirish

Ekologik jinoyatlar bugungi kunda global miqyosda atrof-muhitga tahdid soluvchi eng jiddiy huquqiy va ijtimoiy muammolardan biriga aylangan. Ular nafaqat tabiiy resurslarni isrof qilish, balki insoniyatning kelajagi uchun xavf tug‘diruvchi ekologik inqirozlarni yuzaga keltiradi.

Bunday jinoyatlar atrof-muhitning ifloslanishi, yovvoyi tabiatning xavf ostiga tushishi, suv, havo va tuproqning ifloslanishi kabi salbiy holatlar bilan bog‘liq. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (WHO) 2022-yildagi hisobotiga ko‘ra, har yili 13 milliondan ortiq odam atrof-muhit bilan bog‘liq kasalliklar tufayli vafot etadi, bu esa ekologik jinoyatlar va ularning salbiy ta’sirini yanada aniqlashtiradi.

Ekologik jinoyatlar orasida tabiiy resurslarning noqonuniy ekspluatatsiyasi, yovvoyi hayvonlarning noqonuniy ovlanishi, chiqindilarni noqonuniy tashlash, va ekologik xavf tug‘diruvchi moddalarni chiqarish kabi jinoyatlar mavjud. Masalan, 2018-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ekologik jinoyatlar global iqtisodiyotda yiliga 91 trillion dollar zarar yetkazishini e’lon qildi. Bu ko‘rsatkich global jinoyatlar orasida eng yuqori o‘rinlardan birini egallaydi.

Jinoiy javobgarlikning ekologik jinoyatlar bilan bog‘liq tartibi, ayniqsa, ularning jazolarini belgilash va jinoyatchilarни jazolash bo‘yicha jiddiy yuridik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ekologik jinoyatlar, ko‘plab mamlakatlarda, ko‘pincha faqat ma’muriy javobgarlik sifatida ko‘rilgan bo‘lib, bu holatning jiddiyligini inkor etadi. Shu bilan birga, ekologik jinoyatlarga qarshi jinoiy javobgarlikni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda. Xalqaro miqyosda, masalan, Yevropa Ittifoqi va AQShda ekologik jinoyatlar uchun alohida ekologik sudlar tashkil etilgan va ekologik jinoyatchilikka qarshi maxsus qonunlar qabul qilingan.

Ekologik huquqning rivojlanishi va ekologik jinoyatlar bilan kurashishning huquqiy mexanizmlarini tahlil qilish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. 1992-yildagi Rio deklaratsiyasida aytilganidek, "Atmosfera, yer va suv resurslari insoniyatning umumiylidir" va "har bir shaxsda atrof-muhitni himoya qilish va saqlash huquqi bor".

Ushbu tamoyillar, tabiiy resurslarning ekspluatatsiyasi va ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashishda huquqiy me’yorlarning yaratilishini talab qiladi.

Shunday qilib, ekologik jinoyatlar va ularning jinoiy javobgarligi masalasi faqatgina yuridik nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan ham dolzarbdir.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, ekologik jinoyatlar va jinoiy javobgarlikni tahlil qilish ushbu maqolaning asosiy maqsadi bo'lib, ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirishning zarurligi va mumkin bo'lgan yechimlarni ko'rib chiqishga qaratilgan.

II. Metodologiya

Ushbu ilmiy tadqiqotda ekologik jinoyatlar va ularning jinoiy javobgarlik bilan bog'liqligini o'rghanish uchun bir qator yuridik, ilmiy va analitik metodlar qo'llanildi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar quyidagicha:

1. Huquqiy tahlil metodidan foydalanish orqali ekologik jinoyatlar va ularga qarshi kurashishning huquqiy asoslari o'rghanildi. Ushbu metod orqali ekologik jinoyatlar bilan bog'liq huquqiy me'yorlar, xalqaro va milliy qonunlar tahlil qilindi. Bu metod ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi qonunlarni ko'rib chiqish va ularning samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

2. Huquqiy taqqoslash usuli, turli mamlakatlardagi ekologik jinoyatlar va ularga qarshi kurashish tizimlarini o'rghanish va taqqoslashga yordam beradi. Bu metod orqali, ekologik jinoyatlar bo'yicha huquqiy me'yorlarning xalqaro va milliy miqyosdagi farqlari, shuningdek, bu qonunlarning samaradorligi tahlil qilindi. Bunday taqqoslash orqali, mamlakatlarda ekologik jinoyatlar bilan kurashishning farqli yondashuvlari va bu sohadagi muvaffaqiyatli tajribalar o'rghanildi.

3. Case-study metodidan foydalanish orqali ekologik jinoyatlar bo'yicha real misollar tahlil qilindi. Bu metod atrof-muhitni buzgan real holatlar va ularni hal qilishdagi yuridik yondashuvlarni o'rghanishga imkon berdi. Masalan, ekologik jinoyatlar sodir etgan shaxslarning jazolari va bu jazolarni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatlar yoki kamchiliklarni o'rghanishga yordam berdi. Misollarni tahlil qilish orqali, ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish zarurati va takliflar ishlab chiqildi.

4. Statistik tahlil ekologik jinoyatlar va ularning atrof-muhitga ta'siri haqida olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda qo'llanildi. Tadqiqotda ekologik jinoyatlar va atrof-muhitni buzishning global ta'sirini ko'rsatadigan statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Statistika yordamida, ekologik jinoyatlar tufayli sodir bo'lgan salbiy holatlar va ularning atrof-muhitga ta'siri o'rghanildi. Bu metod orqali ekologik jinoyatlarning iqtisodiy va ijtimoiy zararini aniqlash mumkin bo'ldi.

5. Sotsiologik yondashuv ekologik jinoyatlar bilan bog'liq ijtimoiy omillarni o'rghanishga yordam berdi. Bu metod orqali ekologik jinoyatlar va jinoiy javobgarlikning ijtimoiy sabablari,

jinoyatichilarning motivatsiyalari va jinoyatichilikka qarshi kurashishda ijtimoiy yondashuvlar o'rganildi. Tadqiqotda ekologik jinoyatlar va atrof-muhitni himoya qilishdagi jamoatchilik ishtirokini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Ushbu tadqiqotda qo'llanilgan metodlar ekologik jinoyatlar va jinoiy javobgarlikni o'rganishning turli jihatlarini keng qamrovli tahlil qilish imkonini berdi. Huquqiy tahlil, huquqiy taqqoslash, case-study, statistik tahlil va sotsiologik yondashuvlar birligida ekologik jinoyatlarning huquqiy va ijtimoiy jihatlarini mukammal tarzda o'rganishga imkon yaratdi. Bu metodlar orqali ekologik jinoyatlarga qarshi jinoiy javobgarlikni kuchaytirishning zarurligi va amaldagi qonunlar bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

III. Natija

Ushbu tadqiqotning natijalari ekologik jinoyatlar va ularga qarshi kurashishda jinoiy javobgarlikni kuchaytirish zarurligini tasdiqladi. Tadqiqotda ishlatilgan metodlar asosida olingan natijalar quyidagi yo'nalishlarda jamlangan:

a) Huquqiy tahlil orqali ekologik jinoyatlar uchun belgilangan jazolarni ko'rib chiqishda, ko'plab mamlakatlarda ekologik jinoyatlar uchun yetarli jinoiy javobgarlikning yo'qligi aniqlangan. Masalan, Baxter o'zining "Environmental Law and Policy" kitobida ekologik jinoyatlar uchun jazolarni kuchaytirish va amaldagi qonunlarni samarali amalga oshirishga urg'u bergan. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, ekologik jinoyatlar, ko'plab davlatlarda, ko'proq ma'muriy huquqbazarlik sifatida ko'rildi, bu esa jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi.

b) Huquqiy taqqoslash metodini qo'llash natijasida, ekologik jinoyatlar bilan kurashishning xalqaro miqyosdagi samarali yondashuvlari va turli mamlakatlardagi yuridik tizimlar o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Parker va Sims ekologik jinoyatlarga qarshi kurashishda Yevropa Ittifoqi va AQShning samarali qonuniy tartiblaridan misollar keltirib, bunday yondashuvlarning ijobiy natjalarga olib kelganini ko'rsatdi. Misol uchun, AQShda ekologik jinoyatlar uchun ekologik sudlar tashkil etilgan va bu sudlar atrof-muhitni buzgan shaxslarni qat'iy jazolashga imkon yaratgan. Bundan tashqari, O'zbekistonning ekologik jinoyatlar uchun belgilangan jazolarni ko'rib chiqish natijasida, ushbu sohada hali ham zarur yuridik islohotlar amalga oshirilmasligi va ekologik jinoyatlarni jinoiy javobgarlik sifatida ko'rishning ahamiyati ortib borishi kerakligi aniqlandi. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunida ekologik jinoyatlar bo'yicha belgilangan jazolarni kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan.

c) Statistik tahlil orqali ekologik jinoyatlar va atrof-muhitning ifloslanishi, global iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga jiddiy zarar etkazayotgani aniqlandi. UNODC tomonidan keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili 91 trillion dollar iqtisodiy zarar yetkazilmoqda, bu esa ekologik jinoyatlarning global iqtisodiyotdagi salbiy o'rinni ko'rsatadi. Tadqiqotda ekologik jinoyatlarning

ijtimoiy ta'siri, xususan, qishloq joylaridagi aholi salomatligiga va hayot sifati darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi aniqlangan. Misol uchun, noqonuniy chiqindilarni yoqish yoki sanoat chiqindilarini noto'g'ri tashish, hududlarda salomatlikni jiddiy darajada yomonlashtiradi. Tadqiqotda olingan natijalar ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi. Kassel ekologik jinoyatlar va xalqaro huquqdagi alohida o'rin haqida yozar ekan, ekologik jinoyatlar uchun maxsus jinoiy javobgarlikni belgilash va ekologik jinoyatchilarga nisbatan alohida jazolarni kiritish zaruriyati haqida fikr bildirgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ekologik jinoyatlar bilan kurashishda jinoiy javobgarlikning kuchaytirilishi nafaqat huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshiradi, balki ekologik xatarlarning oldini olishda ham muhim rol o'yndaydi.

d) Sotsiologik yondashuv natijalariga ko'ra, ekologik jinoyatlarga qarshi kurashishda jamoatchilikning ishtiroki katta ahamiyatga ega. Tadqiqotda ijtimoiy ongi oshirish va atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha jamoatchilik tashabbuslari samaradorligi ko'rsatilgan. Islomov ekologik huquq va ijtimoiy yondashuvlarni o'rghanar ekan, ekologik jinoyatlarga qarshi kurashishda jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va mahalliy hamjamiyatlarning faol ishtiroki muhimligini ta'kidladi.

Tadqiqot natijalari, ekologik jinoyatlar va ularga nisbatan jinoiy javobgarlikni kuchaytirish zarurligini tasdiqladi. Ekologik jinoyatlar nafaqat atrof-muhitni, balki insoniyatning kelajagini tahdid qilayotgan jiddiy muammo sifatida qolmoqda. Milliy va xalqaro qonunlarda ekologik jinoyatlar uchun belgilangan jazolarni kuchaytirish va samarali jinoiy javobgarlik tizimini yaratish zarur. Bunda, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy yondashuvlar birgalikda ishlashi muhimdir. Jamoatchilik va davlat organlari birgalikda ekologik jinoyatlar va atrof-muhitni himoya qilishda samarali tizim yaratishi zarur.

IV. Muhokama

Tadqiqotda ekologik jinoyatlar va ularga nisbatan jinoiy javobgarlikning huquqiy va ijtimoiy jihatlari o'r ganilgan va bu o'r ganishlar orqali ba'zi muhim xulosalar chiqarilgan.

Metodologiya qismida qo'llangan huquqiy tahlil metodidan kelib chiqqan holda, ekologik jinoyatlar uchun mavjud jinoiy javobgarlikning samaradorligi xususida xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotda ekologik jinoyatlar ko'plab mamlakatlarda ma'muriy huquqbazarlik sifatida baholanayotgani va jinoiy javobgarlikni belgilovchi qonunlar juda sekin o'zgarayotgani aniqlandi. Baxter va Parker & Sims tadqiqotlariga tayanadigan bo'lsak, ekologik jinoyatlar uchun jinoiy jazolarni kuchaytirish, ayniqsa, atrof-muhitga katta zarar yetkazganlik holatida zarurdir.

Tadqiqotda, ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikning kuchaytirilishi nafaqat huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshiradi, balki atrof-muhitni himoya qilishga bo‘lgan davlat va jamoat e’tiborini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, Islomov tomonidan ta’kidlanganidek, ekologik jinoyatlar uchun maxsus yuridik mexanizmlar va maxsus ekologik sudlar tashkil etilishi kerak. Bu usul, ekologik jinoyatlar va atrof-muhitni buzgan shaxslarni yanada samarali jazolashga imkon yaratadi. O‘zbekistonda ekologik jinoyatlar bo‘yicha mavjud qonunlar hali ham samarali ishlamagan va amaliyotda ko‘plab kamchiliklar mavjud. Bu masala atroflicha ko‘rib chiqilishi kerak.

Tadqiqotda ekologik jinoyatlarning global iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga salbiy ta’siri yoritilgan. UNODC tomonidan keltirilgan statistik ma'lumotlar, ekologik jinoyatlar tufayli har yili 91 trillion dollarga yaqin iqtisodiy zarar yetkazilayotganini ko‘rsatmoqda. Tadqiqotda ekologik jinoyatlar iqtisodiy nuqtai nazardan faqat atrof-muhitni ifloslantirishni emas, balki insonlarning salomatligiga, turizm, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda ham katta zararning yuzaga kelishini ko‘rsatdi. Bu o‘z navbatida, xalqaro miqyosda atrof-muhitni himoya qilishda huquqiy va iqtisodiy me’yorlarni yanada mustahkamlash zaruriyatini tug‘diradi.

Misol uchun, Parker & Sims ekologik jinoyatlarning iqtisodiy zarari haqida gapirar ekan, ekologik jinoyatlar natijasida qishloq xo‘jaligida kuzatilayotgan salbiy tendensiyalarni, masalan, yerning ifloslanishi va suv manbalarining kamayishi kabi holatlarni ta’kidlashgan. Bu holatlar esa, uzoq muddatda, iqtisodiyotning o‘sishiga to‘sinqlik qiladi. Ekologik jinoyatlar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy ahvolni yomonlashtiradi, bu esa ijtimoiy muammolarni yanada kuchaytiradi.

Tadqiqotda ekologik jinoyatlar bilan kurashishda xalqaro tajriba va qonunchilikni taqqoslash natijasida ko‘plab mamlakatlarda ekologik jinoyatlarni kamaytirishga muvaffaqiyatli yondashuvlar ishlab chiqilganligi aniqlandi. Kassell ekologik jinoyatlar va xalqaro huquqdagi alohida o‘rin haqida o‘z asarida ekologik jinoyatlar uchun maxsus jazolarni va maxsus ekologik sudlarni joriy qilishni ta’kidladi. Misol uchun, AQShda ekologik sudlar ekologik jinoyatlar bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish uchun maxsus tashkil etilgan. Bu yondashuv samarali natijalar bergen.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ham ekologik jinoyatlar uchun maxsus yuridik ramkalar mayjud. Parker & Sims ta’kidlashicha, Yevropa Ittifoqining ekologik jinoyatlar bo‘yicha qonunlari, ushbu jinoyatlar bilan bog‘liq holatlarni yanada jiddiyroq tahlil qiladi va jazolarni kuchaytirishga yo‘naltirilgan. O‘zbekistonda ham bunday yondashuvni joriy qilish zarur.

Tadqiqotda olingan natijalar O‘zbekistondagi ekologik huquqni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan "Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi qonun hali ham to‘liq ishlar mayapti va ekologik jinoyatlar bo‘yicha jazolarni kuchaytirish zarur. Bu borada xalqaro tajriba va ilmiy izlanishlar asosida qonunlarni yangilash, maxsus ekologik sudlar tashkil etish, hamda ekologik jinoyatlar bo‘yicha jinoiy javobgarlikni kuchaytirish zarurligi qayd etilgan.

Xulosa

Ekologik jinoyatlar nafaqat atrof-muhitga, balki butun insoniyatga jiddiy tahdid soladi.

Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, ekologik jinoyatlar, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning tugashi va ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jinoyatlar ko‘pincha uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatadi va natijada jamiyatning sog‘lig‘i va farovonligiga salbiy ta’sir qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish zarurligi aniqlandi. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan "Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi qonunda ekologik huquqbuzarliklarni jazolashda ko‘rsatilgan qoidalar hali ham samarali emas. Jinoiy javobgarlik tizimi, ekologik jinoyatlar uchun maxsus jinoiy jazolarni o‘z ichiga olishi kerak, bu esa ekologik jinoyatlar bilan kurashishda samaradorlikni oshiradi.

Kassell ekologik jinoyatlarni faqat iqtisodiy zarar sifatida emas, balki jamiyatga bo‘lgan ta’siridan ham baholash kerakligini ta’kidlagan.

Tadqiqotda xalqaro tajribalar tahlil qilindi va ekologik jinoyatlar bilan kurashishning eng samarali usullari ko‘rib chiqildi. Parker va Sims ekologik jinoyatlar uchun maxsus sudlar tashkil etish va ekologik jinoyatchilarga nisbatan qat‘iy jazolar belgilashni taklif qilgan. Bunday yondashuv Yevropa Ittifoqi va AQShda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan va bu mamlakatlarda ekologik jinoyatlar uchun samarali jazolar tizimi yaratilgan. O‘zbekiston uchun ham bunday tizimni yaratish zarur. Xalqaro tajribalardan foydalangan holda, ekologik jinoyatlar uchun maxsus jinoiy javobgarlikni joriy etish va ushbu sohada islohotlar amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Ijtimoiy ongni oshirish va ekologik jinoyatlarni oldini olishda jamoatchilikning faol ishtiroki katta ahamiyatga ega. Tadqiqotda Islomov tomonidan olib borilgan tahlilga ko‘ra, ekologik huquqni targ‘ib qilish va atrof-muhitni himoya qilishda jamoatchilik tashabbuslari muhim rol o‘ynaydi. Ekologik jinoyatlarning oldini olish uchun davlat va jamoat tashkilotlari birgalikda faoliyat olib borishi zarur. Jamoatchilikka ekologik huquqni tushuntirish va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali bu muammo yuzasidan keng ommaga ma'lumot berish kerak.

REFERENCES

1. United Nations (2023). *Climate Action and Global Cooperation*. UN Climate Change Report.
<https://www.un.org/en/climatechange>
2. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC) (2018). *Environmental Crime in the Global Economy*. UNODC.
<https://www.unodc.org/unodc/en/environment/environmental-crime.html>
3. World Bank (2022). *Climate Change and Development: Key Issues and Strategies*. World Bank Group.
<https://www.worldbank.org/en/topic/climatechange>
4. Kyoto Protocol (1997). *Kyoto Protocol to the United Nations Framework Convention on Climate Change*. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC).
https://unfccc.int/kyoto_protocol
5. IEA (2023). *Carbon Capture, Utilization and Storage: Global Status Report 2023*. International Energy Agency.
<https://www.iea.org/reports/carbon-capture-utilisation-and-storage>
6. IRENA (2023). *Renewable Capacity Statistics 2023*. International Renewable Energy Agency.
<https://www.irena.org/Statistics/View-Data-by-Topic/Capacity>
7. IPCC (2021). *Sixth Assessment Report: Climate Change 2021: The Physical Science Basis*. Intergovernmental Panel on Climate Change.
<https://www.ipcc.ch/report/ar6/wg1>
8. Parij Kelishuvi (2015). *Paris Agreement on Climate Change*. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC).
<https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement/the-paris-agreement>
9. Baxter, R. (2019). *Environmental Law and Policy*. Oxford University Press.
10. Cassell, P. (2018). *Environmental Crimes and International Law*. Oxford University Press.
11. Islomov, D. (2020). *Ekologik huquq va uning amaldagi qonunlaridagi o'rinn*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis nashriyoti.
12. Parker, D., & Sims, S. (2017). *Environmental Crime and its Prevention*. Routledge.
13. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC, 2018). *Environmental Crime in the Global Economy*.